

GADJETLARGA QARAMLIKNING BOLALAR KOGNITIV QOBILIYATLARIGA TA’SIRI

Tursunaliyeva Gulsanam Xusanboy qizi

KUAF, Maktabgacha ta’lim 2-bosqich talabasi

fkqkfkfkqkfk@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18467603>

Annotatsiya: So’ngi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bolalar hayotning ajralmas qismiga aylandi. Smartfon, planshet, kompyuter va boshqa gadjetlardan foydalanish bolalar uchun axbarot olish, o’rganish va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirishda, ularning xaddan tashqari qo’llanilishi, ayrim salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada gadjetlarga qaramlik tushunchasi, uning bolalar kognitiv (bilish) qobiliyatlariga ta’siri, asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari yoritilib berilgan.

Kalit so’zlar: gadjetlarga qaramlik, kognitiv qobiliyat, diqqat, xotira, tafakkur, bolalar rivoji.

Bugungi kunda bolalar juda erta yoshdan boshlab raqamli qurilmalardan foydalanishni boshlamoqda. Ko’plab ota-onalar gadjetlarni bolalarni tinchlantirish, vaqtini band qilish yoki o’qitish vositasi sifatida qo’llashadi. Biroq nazoratsiz meydoridan ortiq foydalanish bolalarda gadjetlarga qaramlikni shakllantirishi mumkindir. Gadjetlarga qaramlik bu bolaning elektron qurilmalarsiz vaqt o’tkaza olmasligi, ulardan foydalanish ehtiyoji ortib borishi va bu holat kundalik faoliyatiga ehtiyoji ortib borishi va bu holat kundalik faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi bilan tavsiflanadi. Bunday qaramlik asta-sekin shakllanib, bolaning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Bolalik davri ushbu qobiliyatlarning jadal rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarning miyyasi yangi ma’lumotlarni tez qabul qilish va qayta ishlashga moslashgan bo’ladi. Shu sababli bu davrda bola duch keladigan muhit va faoliyat turi uning kelajakdagi intellektual rivojiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Gadjetlardagi rang-barang va tezkor tasvirlar bolaning diqqatini tez jalb qiladi. Biroq bu jarayon uzoq muddat davom etganda, bolaning bir faoliyatiga uzoq vaqt e’tibor qaratish qobiliyati pasayadi. Natijada bola mashg’ulot paytida tez chalg’iydi, topshiriqlarni oxirigacha bajarishga qiynaladi.

Doimiy ekranga qarab turish bolaning diqqatini yuzaki shakllantiradi. Ya’ni bola chuqur fikrlashga emas, tez o’rganuvchan tasvirlarga moslashib boradi.

Xotira bolaning o’rganilgan ma’lumotlarni saqlash va qayta tiklash qobiliyatidir. Gadjetlarda tayyor ma’lumotlarni mavjudligi bolaning eslab qolishga bo’lgan ehtiyojini kamaytiradi. Masalan; multfilm, yoki o’yinlarda barcha obrozlar tayyor ko’rinishda bo’lgani sababi bola ularni tasavvur qilishga kamroq harakat qiladi. Bu holat uzoq muddat davom etsa, bolaning eslab qolish qobiliyati sustlashib borishi mumkin.

Tafakkur bu tashkil qilish, solishtirish, umumlashtirish va foydalanish bolaning mustaqil fikrlash faoliyatini cheklaydi. Chunki ko’plab dastur va o’yinlarda bola faqat tayyor buyruqlarini bajaradi. Natijada bola muammoli vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishda qiynaladi.

Nutq bolaning atrofdagilar bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Gadgetlardan ko'p foydalanilgan bolalar kamroq muloqot qiladi, bu esa lug'at boyligining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

Shuningdek ayrim bolalar gapirme qo'yadi, ayrimlari talaffuzlarda muamolarga duch keladilar.

Gadgetlarga qaram bolalar tengdoshlari bilan o'ynashga kamroq qiziqadi. Bu holat ijtimoiy ko'nikmalarni shakllanishini sekinlashtiradi.

Bola jamoada o'zini tuta bilish, kelishish va hamkorlik qilishni yetarli darajada o'zgarmaydi. Natijada bola kelajakda egoist yakkalanish xavflari yuzaga kelishi mumkin.

Gadgetlarni to'g'ri, maqsadga muvofiq va me'yorida qo'llaniladigan bolalar rivoji uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi. Birinchidan bolalar turli xil ta'limiy ilovalar, elektiron darsliklar va video materillardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bolalarni bilimini vizual va eshitish orqali yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, bolalarda axborot izlash va uni taxlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bola kerakli ma'lumotni topish, tanlash va undan foydalanishni o'rganadi.

Bu esa mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirib beradi.

Shuningdek, gadgetlar yordamida bolalar chet-tillarini o'rganishi, matematik tushunchalarni mustahkamlashi va ijodiy faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan: Rasm chizish, musiqa yaratish va konstruktor dasturlar orqali modellar yasash kabi faoliyatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Gadgetlarga qaramlikni oldini olish uchun tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Bu jarayonda ota-onalar, pedagoglar hamda ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi muhim hisoblanadi.

Birinchidan, gadgetlardan foydalanish uchun aniq vaqt chegarasi belgilanishi lozim. Masalan; kun davomida ma'lum soatlarda foydalanishga ruhsat berib, qolgan vaqtlarda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga sharoit yaratib berilishi zarur. Ikkinchidan; bolalarni muloqot faoliyatlarida jalb etishi muhim. Kitob o'qish, rasm chizish, sport mashg'ulotlari, konstruktorlar bilan o'ynash va ijodiy ishlar bolaning bosh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam beradi.

Uchinchidan; ota-onalar bolalar bilan ko'proq muloqot qilishi, suhbatlashish va birgalikda vaqt o'tkazishi zarur. Bu bolaning emotsional ehtiyojlarini qondiradi va gadgetga bo'lgan ehtiyojlari kamayadi. Shu bilan birga ota-onalar o'zlari kam gadgetlardan foydalanishda namuna bo'lishi kerak. Agar kattalar gadgetdan me'yorda foydalansa, bolalar ham shunga amal qiladi. To'rtinchidan: Pedagoglar ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalangan holda bolalarni qiziqishini oshirishi lozim. Qiziqarli mashg'ulotlar bolaning gadgetlarga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda gadgetlarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash bolalar ta'limini samaraliroq tashkil etish imkonini beradi.

Muhimi, tehnalogiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash va bolani passiv tomoshabinga emas, faol ishtirokchiga aylantirishdir.

Bolalarda gadgetlarga qaramlikni himoyalash faqtagina taqiqlar orqali emas, balki ularning mazmunli faoliyatlariga yo'naltirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Ota-onalar va pedagoglar hamkorlikda bolaning qiziqishlarni aniqlab, ularni ijodiy, harakatli va intellektual faoliyatga jalb etishlari zarur.

Ana shundagina bolalarning sog'lom, barkamol va har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib voyaga yetishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shahlo Xodjayeva “Gadgetlarni bola psixologiyasiga ta'siri” (2025).
2. Fazilat Qulmamatova “Gadgetlar va kompyuter o'yinlarining bolalar psixologiyasiga ta'siri.” (2024).
3. Z.Sotvoldoyeva va X.Nematjonova “Raqamli dunyo sharoitida bolalarning rivojlanishi; inovatsion pedagogik texnologiyalar va psixologik moslashuv jarayonlari” - (2025).
4. Marjona Boboraxmato “Bolalar psixologiyasining ontogenetik rivojlanish bosqichlari.” (2025).
5. Aziza Boitova va Ulug'bek Shomurotov “Bolalar psixologiyasi” (2025).